

**BYUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI
TAKOMILLASHTIRISH***Qurbonov Xolmurat Kabilovich**O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi magistranti*

Annotatsiya. Maqolada byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotlarini amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: Buxgalteriya hisobi; byudjet hisobi standarti; davlat sektori; moliyaviy hisobot; rivojlantirish jamg'armasi; soliq imtiyozlari.

Abstract: The article gives recommendations on the improvement of accounting and reporting in budget organizations on the basis of the requirements of the current regulatory and legal documents.

Keywords: Accounting; budget accounting standards; public sector; financial reporting; development fund; tax incentives.

Asosiy qism. Davlat moliyasini boshqarishni huquqiy asoslarini isloh jarayonida qabul qilingan qonuniy hujjatlar asosida byudjet tashkilotlari buxgalteriya ob'yektlari hisobining uslubiyoti takomillashtirilmoqda. Xususan, byudjet tashkilotlarida smetalar ijrosiga oid buxgalteriya axborotlarini shakllantirishda yagona yondashuv va axborotlarni ishonchliligini mustahkamlashga oid qator masalalar o'z yechimini topmoqda. Hozirgi kunda byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini qonunchilik hujjatlari talablariga mos holda shakllantirish yuzasidan ilmiy yechimini topish zarur bo'lgan qator masalalar mavjud. Ma'lumki mamlakatimizda 2014 yil 1 yanvardan "Byudjet kodeksi" amalga kiritildi. Ushbu kodeksning 11- moddasida byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi daromadlari shakllanishi manbalariga "belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar" bandi kiritilgan. O'z o'rnida byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'larga asosiy vositalar yoki material qiymatliklarni sotishdan tushgan tushumning qonunchilikka muvofiq byudjet tashkiloti tasarrufida qoldiriladigan miqdori, transport vositalarini tugatish munosabati bilan hisobdan chiqarilishi natijasida metallomni topshirish hisobiga tushum, mulkiy qiymatliklarni inventarlash natijasida ortiqcha qismi va shu kabi boshqa mablag'larni kiritish mumkin.

Amaldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalar" ga muvofiq byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot shaklining hisobot davrida tushgan daromadlar qismida "belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari

tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar” bandi o'z aksini topmagan. Demak, byudjet tashkilotlarida rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot shakli tarkibiga quyidagicha o'zgartirishlar kiritilishi talab etiladi: amalda tavsiya etiladi hisobot davrida tushgan daromadlar - jami shu jumladan: a) mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan; b) vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berishdan; v) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga ko'rsatiladigan homiylik (beg'araz) yordami hisobidan; g) hisobot choragining oxirgi ish kunida tejab qolingan byudjet mablag'lari. hisobot davrida tushgan daromadlar jami shu jumladan: a) faoliyat turiga mos mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan; b) vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berishdan; v) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga ko'rsatiladigan homiylik (beg'araz) yordami hisobidan; g) hisobot choragining oxirgi ish kunida tejab qolingan byudjet mablag'lari. d) belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar hisobidan. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobotni tarkibiy tuzilishida daromadlar qismida ba'zi nomuvofiqliklar mavjud. Jumladan byudjet tashkilotlarining boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari, grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari bandi “Byudjet kodeksi” ning 11- moddasiga muvofiq byudjet tashkilotlari rivojlantirish jamg'armasi daromadlari shakllanishi manbalariga “belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar” bandiga tegishli. Demak amaldagi moliyaviy hisobotlar tarkibida qonunchilikdagi o'zgartirishlar o'z aksini topishi talab etiladi. Hozirgi kunda buxgalter mutaxassislar tomonidan asosiy vositalarni sotishdan ko'rilgan ijobiy moliyaviy natija subschyoti kredit aylanmasida aks ettirish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa amaldagi me'yoriy hujjatlar talabiga mos kelmaydi. Asosiy vositalarni sotishdan tushgan tushumning 50 foizi byudjet tashkiloti ixtiyorida qoldirilishi belgilangani sababli byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi daromadiga kiritilishi talab etiladi.

Amaldagi qonunchilik talablari bo'yicha inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan moddiy qiymatliklar byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldirilishi belgilangan. “Byudjet kodeksi” ning 11 - moddasiga asosan byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi daromadiga kiritilishi belgilangan. amaldagi “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomaga” ga muvofiq schyotlar rejasida “Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar” schyoti tarkibida “inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar” subschyoti kiritilmagan. Bizningcha 26-schyot tarkibida 263- “Inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan molmulklar” subschyoti kiritilishi hamda 27- schyot “Boshqa daromadlar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar” tarkibidagi 273 “Inventarizatsiya natijasida

ortiqcha chiqqan mol-mulklar” subschyoti bekor qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. qonunchilik talablari bo'yicha byudjet tashkilotlari 2018 yil 1 yanvargacha rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari daromadlari bo'yicha soliqlar va barcha yig'imler to'lashdan ozod etilganligi va bo'shab qolgan mablag'lar moddiy texnika bazasini kengaytirishga yo'naltirilishi belgilangan. Hisobda ushbu talablardan kelib chiqib barcha soliqlar (foyda solig'i, mol mulk solig'i va boshqalar) yig'imler (davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar) bo'yicha imtiyozlar aks ettirilishi kerak. Shuningdek soliq va yig'imler bo'yicha hisobotlar o'rnatilgan muddatlarda soliq idoralariga taqdim etilib borilishi lozim. Bu holatlar bo'yicha ham amaliyotda buxgalter mutaxassislar tomonidan turli yondashuvlar asosida hisob yuritilmoqda. Ya'ni soliqqa tortiladigan baza hamda soliq imtiyozlari hisobiga bo'shab qolgan mablag'larni shakllantirish va shu mablag'larni moddiy texnika bazani kengaytirishga yo'naltirilishi bo'yicha noaniqliklar kuzatilmoqda. Bizningcha, bu holat bo'yicha hisobda soliq imtiyozlarini aks ettirish va ular bo'yicha hisobotlarni tuzish yuzasidan uslubiy ko'rsatma yaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'z navbatida soliq imtiyozlari bo'yicha hisob axborotlarini yagona tartibda shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Byudjet tashkiloti huquqiy maqomida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov kontrakt shakli bo'yicha daromadlar hisobini yuritish aksariyat xollarda daromadlarni tan olinishi kassa usuliga mos holda amalga oshirilayotganligini kuzatish mumkin. Amaldagi o'zbekiston respublikasi “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonun, shuningdek “Hisob siyosati” byudjet hisobi standartiga asosan daromadlar hisoblash tamoyili (pul mablag'lari xarakatiga bog'liq bo'lmagan holda) asosida hisobda aks ettirilishi belgilangan ma'lumki o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan mablag'lar tushimi o'quv yilining birinchi yarmi uchun 1 oktyabrgacha va ikkinchi yarmi uchun 1 martgacha amalga oshirilishi belgilangan. ushbu muddatlarda ta'lim muassasalari buyurtmachilarga yuk xati rasmiylashtirib hisobda daromad sifatida aks ettirishi va ushbu holatni 175 “Talabalar bilan boshqa hisob kitoblar” subschyoti debeti va 252 “Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lovkontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar” subschyoti krediti bo'yicha yozuvda aks ettirishi kerak. bunda debitorlik majburiyat yuzaga keladi va uni undirilishi 90 kalendar' kunidan ortib ketmasligi kerak.

O'qitishning to'lov kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar bo'yicha hisobda daromadlarni tan olish mezonlariga aniqlik kiritish, har bir talaba bo'yicha buyurtmachilar kesimida debitorlik va kreditorlik majburiyatlarni aks ettirilishi tizimini yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Bu amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ijrosini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli “Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq byudjet tashkilotlari tomonidan faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan, byudjet

tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan qo'shimcha daromadlarga soliq imtiyozlari qo'llaniladi. Byudjet tashkilotlarida soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar hisobotlarda faqat balansdagi 285- "Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar" subschyot umumlashgan holda aks etirilmoqda. Lekin imtiyozlar bo'yicha tahliliy ma'lumot olish imkoniyati yo'q. byudjet tashkilotlarida soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar imtiyozlari va ular hisobiga amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ma'lumotlar quyidagi hisobot shaklida aks ettirilishi tavsiya etiladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish faoliyati mavjud bo'lgan byudjet tashkilotlarida chorvachilik mahsulotlari tannarxi hisobini yuritishda ham muammoli holatlar mavjudligi kuzatilmoqda. masalan o'stirishdagi va boquvdagi chorva mollarini o'sish vaznini kirim qilinishi yoki qoramolchilikdan nasl olinganda uni baholab balansga olinishi jarayonlarida yagona yondashuvlar mavjud emas. Bu holatda bizningcha schyotlar rejasiga "Boquvdagi va o'stirishdagi chorva mollari" schyoti kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek qoramolchilikda olingan naslni bozor bahosi belgilanib shu bahoda balansga kirim qilinishi lozim. bulardan tashqari davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib alohida "Qishloq xo'jaligi" byudjet hisobi standarti qabul qilinishi bu boradagi muammoli masalalarni yechimini ta'minlaydi. Xulosa qilganda, byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga mos holda byudjet tashkilotlari buxgalteriya ob'yektlari hisobini takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Byudjet kodeksi" O'zbekiston Respublikasining 26 dekabr' 2013 yilda o'rq 360 – sonli qonuni bilan tasdiqlangan. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz);
2. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, 2016 yil 13 apreldagi o'rq- 404 sonli [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz);
3. O'zbekiston Respublikasi vazirlar maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli "byudjet muassasalarini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz);
4. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (1-sonli) "Hisob siyosati" o'z.r av. tomonidan 2016 yil 27 dekabrda № 2853-son bilan ro'yxatdan o'tgan [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz);
5. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma o'z.r av. tomonidan 2010 yil 22 dekabrda № 2169-son bilan ro'yxatdan o'tgan [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz);
6. "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim

qilish bo'yicha qoidalar” o'z.r av. tomonidan 2011 yil 27 sentyabrda № 2270-son bilan ro'yxatdan o'tgan [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)

7. Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot – T.: “Iqtisod va moliya”. 2016. 136 b “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №2, aprel

